



UDK:78.031(575.144)

Nodira RADJABOVA,
PhD, BuxDU mustaqil izlanuvchisi
E-mail:rajabovanodira33@gmail.com

Buxoro davlat universiteti professori, t.f.d Sh.Hayitov taqrizi asosida

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI KUY VA QO'SHIQCHILIK SAN'ATINI YUKSALTIRISHNING DASTLABKI O'QUV DARGOHLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada Navoiy viloyatida musiqa va qo'shiqchilik san'ati rivojida musiqa va san'at maktablarining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim muassasalarining yosh avlodga musiqiy bilim va ko'nikmalar berish, iste'dodlarni aniqlash va rivojlantirish, milliy madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishdagi roli yoritilgan. Shu bilan birga, musiqa maktablarining hududda madaniy muhitni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-estetik tarbiyalash va ularni san'atga jalb etishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ixtisoslashtirilgan, damli, zarbli cholg'u, folklor, musiqa san'ati, milliy musiqiy meros, madaniy taraqqiyot, estetik tarbiya, madaniyat, Shashmaqom, xalq qo'shiqlari.

ДЕТСКИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ШКОЛЫ КАК НАЧАЛЬНЫЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ИСКУССТВА ПЕНИЯ И ВОКАЛА (НА ПРИМЕРЕ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

В статье анализируется роль и значение музыкальных и художественных школ в развитии музыкального и певческого искусства в Навоийской области. Также освещена роль образовательных учреждений в передаче музыкальных знаний и навыков молодому поколению, выявлении и развитии талантов, сохранении и популяризации национального культурного наследия. В то же время научно проанализирована роль музыкальных школ в формировании культурной среды региона, духовно-эстетическом воспитании молодежи и приобщении ее к искусству.

Ключевые слова: Специализированный, духовой, ударный инструмент, фольклор, музыкальное искусство, национальное музыкальное наследие, культурное развитие, эстетическое воспитание, культура, шашмаком, народные песни.

CHILDREN'S MUSIC AND ART SCHOOLS AS THE PRIMARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS FOR ENHANCING INSTRUMENTAL AND VOCAL PERFORMANCE (CASE OF NAVOI REGION)

Annotation

This article analyzes the role and importance of music and art schools in the development of musical and vocal performance in the Navoi region. It also highlights the contribution of educational institutions in providing the younger generation with musical knowledge and skills, identifying and developing talents, and preserving and promoting the national cultural heritage. In addition, the role of music schools in shaping the cultural environment of the region, fostering the spiritual and aesthetic education of youth, and attracting them to art is scientifically examined.

Key words: Specialized, wind instruments, percussion instruments, folklore, musical art, national musical heritage, cultural development, aesthetic education, culture, Shashmaqom, folk songs.

Kirish. Musiqa maktablari o'z taraqqiyot davrida turli vazirliklar tarkibida bo'lib keldi. Dastlab musiqa maktablari XX asrning 30-yillarida Maorif xalq komissarligi tizimida tashkil etilgan. Viloyatlardagi davlat arxivlari fondlari bilan tanishish jarayonida musiqa maktablariga oid bo'lgan ma'lumotlar 1951-yilga qadar Maorif xalq komissarligining viloyatlardagi xalq maorifi bo'limlari faoliyatiga oid hujjatlar yig'ma jildlaridan topib o'rganildi. 1951-1960-yillarda musiqa va san'at maktablari Madaniyat ministrligining viloyatlardagi bo'limlari boshqaruvida bo'ldi. 1960-yil 18-avgustda O'zSSR Ministrlar Sovetining "O'zbekistonda musiqa ta'limi va san'atini yaxshilash va rivojlantirishning kelgusi masalalari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. 1960-yil sentabrdan Madaniyat ministrligi tasarrufidagi musiqa maktablari Maorif ministrligi ixtiyoriga o'tkazildi[1]. O'zbekiston SSR ministrlar sovetining 1985-yil 7-fevraldagi 69-son qaroriga ko'ra musiqa maktablari Xalq maorifi vazirligidan yana Madaniyat ishlari vazirligi ixtiyoriga o'tkazilgan[2]. Bundan ko'rinib turibdiki, 1960-1985-yillarda musiqa maktablari Xalq maorifi vazirligi

tarkibida bo'lgan. 1985-yil iyul oyidan 2008-yil iyuliga qadar Respublikadagi musiqa hamda san'at maktablari Madaniyat vazirligi tarkibida bo'ldi. Mazkur vazirlik 1992-yildan Madaniyat ishlari vazirligi, 2004-yildan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi deb yuritila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2008-yil 8-iyuldagi 910-son Qaroriga muvofiq musiqa va san'at maktablari Xalq ta'limi vazirligi boshqaruviga qaytarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi PF-4956-son farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tuzilmasidagi P.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi, B.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi, bolalar musiqa va san'at maktablari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazildi[3].

Mustaqillik yillarida musiqa maktablarining taraqqiy etishi uch bosqichga bo'lindi. Birinchi bosqich 1992-2008-

yillarni o'z ichiga olib, maktablar Madaniyat vazirligi tasarrufida faoliyat yuritdi. Bu davrning o'ziga xosligi shundaki, sho'ro tuzimi parchalangach, Respublikada madaniyat, san'atni rivojlantirish uchun umumiy islohotlar olib borildi. Biroq ushbu islohotlar dastlabki iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli sohadagi sovet hokimiyatidan meros bo'lib qolgan muammolarni to'liq hal eta olmadi. Ushbu yillarda musiqa maktablari alohida, san'at maktablari alohida faoliyat yuritdi. San'at maktablari viloyatlarda ko'pi bilan 8 tani tashkil etib, asosan shahar hududlarida joylashgan edi. San'at yo'nalishida tahsil olishni xohlagan bolalar shaharga qatnab o'qishga majbur edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Navoiy viloyatida musiqa va qo'shiqchilik san'atiga doir ma'lumotlarni tayyorlashda Navoiy viloyat davlat arxivi hujjatlaridan foydalanildi. Ushbu hujjatlarda mustaqillik yillarida viloyatda faoliyat yuritgan Respublika Madaniyat vazirligi tasarrufidagi muassasalar va ijodiy jamoalar, ularning moddiy texnik ba'zasini mustahkamlanishi, viloyatda faoliyat yuritgan musiqa va san'at maktablarining holati, o'quvchilar soni, yo'nalishlar taqsimoti, o'quv jarayoni, talantlarning tanlovlardagi ishtiroki kabilar o'rganildi va guruhlashtirildi. Istiqloq yillarida ushbu ta'lim muassasalar faoliyatiga katta e'tibor qaratilgani Respublika va viloyat matbuotida muntazam yoritib borilgani bilan bog'liq ma'lumotlar to'planishi manbaviy bazani mustahkamladi. Musiqa va qo'shiqchilik san'ati sohasi mutaxassislari vakillari bilan olib borilgan ko'p sonli mulohazalar maqola manbaviy asoslarini boyitishda qo'llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda tarixiy xronologik, izchillik, obyektivlik, sivilizatsion yondashuv, qiyosiy tahlil, tarixiylik, zamonaviylik metod va usullaridan foydalanildi.

Natijalar: Navoiy viloyatida madaniyat vazirligi tasarrufidagi bolalar musiqa va san'at maktablari musiqa va qo'shiqchilik san'atining rivoji yo'lida muhim o'rin tutadi. Viloyatda 14 ta ta'lim muassasalarining 13 tasi Bolalar musiqa va san'at maktablari, bitta Ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Keyinchalik esa mustaqillik sharofati bilan musiqa va san'at maktablari salmog'i ko'paydi. Jumladan, 1994-yilda Navbahor tumanida, 2014-yilda Navoiy shahrida 8-sonli, Xatirchi tumanida 9-sonli, Tomdi tumanida 12-sonli Bolalar musiqa va san'at maktablari, 2017-yilga kelib Qiziltepa tumanida 13-sonli Bolalar musiqa va san'at maktablari tashkil etildi[4].

Navoiy viloyati O'zbekistonning yirik va asosan Qizilqum cho'llariga to'la viloyatlaridan biri bo'lib, ko'p aholi punktlari cho'l iqlimi va transport masofalari sababli nisbatan chekka hisoblanadi. Jumladan, viloyatning yirik cho'l hududida joylashgan, aholisi nisbatan kam bo'lgan Uchquduq, cho'lning markazida joylashgan, eng kam aholiga ega Tomdi va cho'l zonasidagi eng olis tumanlardan biri Konimex tumanlarida ham musiqa va qo'shiqchilik san'atiga e'tibor yuqori bo'lib, madaniyat markazlaridan tashqari Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat yuritmoqda. Navoiy viloyati Konimex tumani 4- bolalar musiqa va san'at maktabida o'qiyotgan 333 nafar o'quvchilar fortepiano, xalq cholg'ulari, An'anaviy cholg'u ijrochiligi, An'anaviy xonandalik, Akademik xonandalik, Estrada xonandaligi, Estrada cholg'u ijrochiligi, Damli va zarbli cholg'ular, Torli cholg'ular, Baxshichilik san'ati kabi musiqa va san'atning 14 yo'nalishi asosida ta'lim oladilar[1].

Navoiy viloyatida Madaniyat vazirligi tasarrufidagi bolalar musiqa va san'at maktablari sohani rivojlantirish yo'lida muhim tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Ular hududda musiqa va san'atga qiziquvchi yoshlarni tarbiyalab, milliy va zamonaviy ijrochilik an'analarini saqlash hamda davom ettirishda katta ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ushbu maktablar

orqali iste'dodli bolalarni erta aniqlash, ularni musiqa nazariyasi, cholg'u ijrochiligi, xonandalik, raqs va tasviriy san'at yo'nalishlarida maqsadli o'qitish amalga oshirilmoqda. Bu esa kelajakda professional san'atkorlar, o'qituvchilar va ijodiy jamoalar uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qiladi[5]. Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarida milliy merosni saqlash (maqom, xalq qo'shiqlari, an'anaviy cholg'ular), konsert va ko'rik-tanlovlar orqali ijodiy muhitni kuchaytirish, yoshlar o'rtasida madaniy tarbiya va estetik didni oshirish, tuman va shaharlarda madaniy hayotni jonlantirish professional san'at ta'limiga tayyorlov bosqichini yaratish kabi vazifalarni bajarib kelmoqda. Natijada Navoiy viloyatida san'atga qiziquvchi yoshlar soni oshib, ijrochilik madaniyati yuksalmoqda va mahalliy folklor-estrada jamoalari faoliyatida ham yangi avlodning ishtiroki kuchaymoqda[6].

Cho'l markazida joylashgan Uchquduq tumani 1982-yilda tashkil topgan bo'lib, asosan sanoat va konchilik hududi sifatida shakllangan. Tumanda o'zbeklar, qozoqlar, ruslar, qoraqalpoqlar, tatarlar va boshqa turli millat vakillari yashaydi. Ayniqsa, hudud Qozog'iston Respublikasiga yaqin joylashganligi sababli qozoq millat vakillari nisbatan ko'proq uchraydi.

Uchquduq tumanida ham 1968-yildan buyon Bolalar musiqa va san'at maktabi faoliyat yuritmoqda[6]. Hozirda tumandagi 10-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabida qoraqalpoq millatiga mansub madaniyat xodimi Umirbayeva Mavjuda Sharibovna rahbarlik qilib kelmoqda. Uchquduq tumani aholisi san'atga qiziqishi yuqori bo'lganligi uchun 10-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi bino quvvati 200 o'ringa mo'ljallangan bo'lsada, 467 nafar o'g'il qizlar san'at sirlarini egallamoqda. Ushbu maktabda musiqa va san'atning 14 yo'nalishi asosida ta'lim berib kelinmoqda[7]. Direktorning aytishicha, qozoq millati vakillari asosan bayan, do'mbra cholg'usini chalishni o'rganish, hamda, Akademik vokal yo'nalishini o'zlashtirish istagida kelishadi.

Uchquduq tumanida yashayotgan qozoq aholisi milliy an'analarini yaxshi saqlab kelayotgan bo'lib, ular an'anaviy milliy qozoq xalq qo'shiqlariga mansub bo'lgan terme, jir, tolg'au kabi janrlarda ko'proq ijod qilishadi. Bunday asarlarda millat tarixi, vatan, botirlik va muhabbat mavzulari kuylanadi. Qozoqlarning sevib chaladigan musiqa asboblari do'mbra hisoblanadi. Do'mbra - qozoq milliy cholg'usi bo'lib, Uchquduq qozoqlari orasida juda mashhur. Do'mbrada kuy ijro etish an'anasi avloddan-avlodga o'tib kelmoqda, deyarli har bir uchquduqlik qozoqlar xonadonida do'mbra cholg'usi saqlanadi, foydalaniladi.

Qozoqlar orasida aytis san'ati ham juda mashhur bo'lib ketgan. Aytis - improvizatsiyali she'riy musobaqa bo'lib, ikki oqin do'mbra jo'rligida bahslashadi. Bu turdagi chiqishlar bayram va madaniy tadbirlarda qiziqish bilan tinglanadi.

Uchquduq tumanida istiqomat qiliuvchi qozoqlar zamonaviy Estrada bilan ham shug'ullanib, Qayrat Nuratas, Dimash Qudaybergen kabi ijrochilar qo'shiqlari ham yoshlar orasida ommalashgan[7]. Uchquduqda qozoq xonadonlari to'y marosimlarida betashar, jar-jar kabi marosim qo'shiqlari alohida o'rin tutadi. Uchquduq tumanida ko'p millatli muhit mavjudligi sababli, qozoq aholisi o'zbek va qoraqalpoq qo'shiqlarini ham hurmat bilan tinglaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 8-iyuldagi "Bolalar musiqa va san'at maktabining moddiy texnik ba'zasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarda mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida" gi PQ-910-sonli qarori ijrosini ta'minlash borasida 2011-2012-o'quv yillarida yangi maktablar ishga tushirildi, maktablardagi moddiy texnik ba'za mustahkamlandi.

Davlat dasturi doirasida birgina Navbahor tumani 11-son Bolalar musiqa va san'at maktabi misolida oladigan

bo'lsak, 2011-yilda jami 396363,4 mln so'mlik 112 turdagi, 2013-yil 3101,7 mln so'mlik 5 turdagi, 2014-yil 4200 mln so'mlik 1 turdagi, 2015-yil 4210 mln so'mlik 1 turdagi musiqa asboblari, mebel va uskunalari bilan jihozlandi. 2016-yil davomida 5532,0 so'mlik 5 turdagi va 2017-yil davomida 5700,0 so'mlik inventar va jihozlar bilan ta'minlandi[8].

Natijada Bolalar musiqa va san'at maktablaridagi ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarning ijodiy salohiyatining rivojlanishiga, viloyat ba Respublika miqyosidagi ko'rik-tanlov va festivallarda ishtirokining faollashuviga xizmat qildi. Jumladan, Navbahor tumani Bolalar musiqa va san'at maktabi An'anaviy xonandalik bo'limi o'quvchisi Xolmo'minova Xuvaydo 2017-yil 3-iyulda "Muhiddin Qori-Yoqubov" nomidagi Respublika ko'rik tanlovining Respublika bosqichida Alisher Navoiy g'azali "Aylagach" va "Barno yigit" ashulalari bilan ishtirok etib, 2-darajali diplom bilan taqdirlandi[8].

Shuningdek, 2017-yilning oktabr oyida bo'lib o'tgan "Kamalak yulduzlari-2017-yil" bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichida maktabning An'anaviy xonandalik bo'limi o'quvchisi Xolmo'minova Xuvaydo ishtirok etib, faxrli birinchi o'rinni egallab, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgan[8]. Undan tashqari, Navbahor tumani 11-son Bolalar musiqa va san'at maktabining "Tarannum" maqomchilar ansambli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3022-sonli qaroriga asosan iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Respublika madaniyat vazirligi 2017-yil

3-oktabrdagi 706-sonli buyrug'iga asosan Bolalar musiqa va san'at maktablarining ansambllari orasida tashkil etilgan Respublika miqyosida ko'rik tanlovda ishtirok etib, 2018-yil aprel oyida Respublika bosqichida faxrli 3-o'rinni egallashdi[8].

Ushbu musiqa va san'at maktabida "Kapalak" raqs jamoasi ham mavjud bo'lib, yuqoridagi qaror asosida tashkil etilgan raqs yo'nalishi bo'yicha Respublika ko'rik tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni, Respublika bosqichida 3-o'rinni egallashgan. Navoiy viloyati hokimligi va madaniyat boshqarmasi tomonidan sovrinli sovg'alar bilan taqdirlanilgan[8].

Xulosa va takliflar. Xullas, Navoiy viloyatida Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarda professional ta'lim va madaniy-estetik tarbiyada muhim bo'lib kelmoqda.

1. Navoiy viloyati ko'p millatli bo'lganligi tufayli barcha millatlarning musiqa va qo'shiqchilik san'atidagi yutuqlarini umumlantirish, bu borada bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni aniq belgilab olish ahamiyatli bo'lardi.

2. Viloyatda musiqa va qo'shiqchilik san'atida konsertlar tomosha qilish, ansambllarning o'zaro tajriba almashinuvi, ijodiy jamoa va guruhlarini yangi talantlar bilan boyitish ham muhim vazifalarning biridir,

3. Navoiy viloyati musiqa va san'ati rivojida milliy madaniy markazlar qoshidagi san'at dastalarini viloyat va qo'shni viloyatlardagi gastrollarni kengaytirish,

4. Musiqa san'ati va qo'shiqchilik sohasida yuksak natijalarga erishgan talantlarni saralash, rag'batlantirish jarayonlarini kengaytirish ham kutilgan natijalarni beradi.

ADABIYOTLAR

1. Murtozova S.B. XIX asr oxiri-XX asrning 80-yillarida O'zbekiston musiqa madaniyatidagi transformasiya jarayonlari. - Toshkent. Voris-nashriyoti, 2019.-B.92.
2. O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi joriy arxivi. 2023-yil hisoboti.
3. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2017-yil. 15-fevral, PF-4956-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 8-son, 105-modda //https://lex.uz/docs/-3115562 (murojaat qilingan sana 23.12.2025).
4. Navoiy viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi. 2024-yil hisoboti.
5. Muallifning muloqot materiallari. Navoiy viloyati madaniyat boshqarma boshlig'i Nodir Niyazov bilan shaxsiy muloqot ma'lumoti. 2025-yil 24-yanvar.
6. Navoiy viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi. 2025-yil hisoboti.
7. Muallifning muloqot materiallari. Uchquduq tumani 10-son Bolalar musiqa va san'at maktabi direktori Umirbayeva Mavjuda Sharibovna bilan shaxsiy muloqot ma'lumoti. 2025-yil 16-dekabr.
8. Navoiy viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi. Navbahor tumani 11-son bolalar musiqa va san'at maktabi hisoboti. 2017-2018-o'quv yili.